

## LAVOZIMDAN CHETLASHTIRISH MAJBURLOV CHORASINI QO'LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TARTIBI

**Davronov Isroiljon G'ofurjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
"Tergov faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi.

**E-mail:** [isroiljon.davonov.uz@mail.ru](mailto:isroiljon.davonov.uz@mail.ru)

Phone: +998 93 428 76 67.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11317000>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini yuqori o'ringa qo'yilishi, uning asosiy huquqlaridan biri mehnat qilish huquqi ekanligi, mehnat qilish huquqi faqat sud qarori orqali qonunda belgilangan tartibda cheklanishi lozimligi, bu haqida yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham batafsil belgilanganligi keltirib o'tilgan.

Bundan tashqari maqolada lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash qonuniyligi va tartibi, mazkur majburlov chorasini qo'llash mumkin bo'lgan subyektlar, muddatlari, apellatsiya shikoyati keltirish tartibi yoritilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida umumiy xulosalar hamda mazkur majburlov chorasini qo'llashda amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar, lavozimdan chetlashtirish, majburlov chorasi, Jinoyat-protsessual kodeksi, iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror.

## LEGAL BASIS AND PROCEDURE OF APPLYING THE COMPULSORY MEASURE OF DISMISSAL

**Abstract.** In this article are given human rights and freedoms and legal interests is high priority in the Republic of Uzbekistan, one of its main rights is the right to work and the right to work should be limited only by a court decision in accordance with the law. It is stated in detail in the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

In addition, the article is described the legality of applying the coercive measure of dismissal, the entities to which this coercive measure can be applied, the terms, the procedure for applying it, and the procedure for filing an appeal. Based on the conducted research are given general conclusions and practical recommendations for the application of this coercive measure.

**Key words:** Constitutional rights and freedoms, removal from office, coercive measure, Criminal Procedure Code, decision to initiate a petition.

## ПРАВОВОЕ ОСНОВАНИЕ И ПОРЯДОК ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНУДИТЕЛЬНОЙ МЕРЫ УВОЛЬНЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье указано, что правам и свободам и законным интересам человека уделяется первоочередное внимание в Республике Узбекистан, что одним из его основных прав является право на труд, что право на труд должно быть ограничено только по решению суда в соответствии с законодательством, что также подробно определено в принятой Конституции Республики Узбекистан.

Кроме того, в статье описаны законность применения меры принуждения в виде увольнения, субъекты, к которым может быть применена данная мера принуждения, сроки, порядок ее применения, а также порядок подачи апелляционной жалобы. На основе

*проведенного исследования даны общие выводы и практические рекомендации по применению данной меры принуждения.*

***Ключевые слова:** Конституционные права и свободы, отстранение от должности, мера принуждения, УПК, решение о возбуждении ходатайства.*

## **KIRISH**

Darhaqiqat bugungi kunda, inson huquqlarini amalga oshirish har bir shaxsning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda inson shaxs sifatida shakllanar ekan, o'zining asosiy huquqlari bilan birga vazifalarini ham ado etmog'i lozim. Buning uchun asosiy yordamchi sifatida davlat o'z funksiyalarini bajarish orqali namoyon qiladi.

Hozirgi zamonda shaxsning huquq va erkinlari nafaqat milliy qonunchiligimizda, balki umume'tirof etilgan normativ hujjatlarda ham o'z aksini topgan.

Jumladan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning 11-moddasida "Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega. Har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega."-ekanligi qayd qilingan.[1]

Haqiqatdan ham mehnat qilish har bir insonning uzviy huquqlaridan biri hisoblanadi.

Shunday ekan bunday huquqdan mahrum qilish asosli va qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilmog'i lozim.

Bundan tashqari, 1966 yilda qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Paktining 9-moddasida "Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Bunday huquqlardan faqat sudning qarori orqaligina cheklanishi mumkinligi",-ko'rsatilgan.[2]

Shuni ta'kidlash lozimki keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham shaxsiy huquqlarni ta'minlashga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindiki, jamiyatda shaxsning haqiqatda ham birinchi o'rinda qo'yish lozimligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi taxrirda qabul qilinishi yuqoridagi so'zimizning isboti bo'lishi mumkin.

Zero Konstitutsiyamizning 28-moddasida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi qat'iy belgilandi.[3]

Inson huquqlari oliy qadryat hisoblanib, uni cheklash faqat qonuniy tartibda amalga oshirilishi lozimdir. Zero O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli qarorining 14-maqsadida fuqarolarga huquqiy ta'sir ko'rsatish, shu jumladan harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog'liq choralarni qo'llashda qonuniylikni so'zsiz ta'minlash belgilab qo'yilganligi ham keyingi yillarda mazkur yo'nalishda asosiy e'tibor inson huquqlarini cheklashda qonuniylikka rioya qilishni ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatmoqda.[4]

Bu borada jinoiy-sud ishlarini yuritishni yanada takomillashtirish muhim bo'lib, majburlov chorasi, ayniqsa lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini isloh qilish dolzarb masala hisoblanadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Majburlov choralari, xususan jinoyat protsessida lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasi bir qator dunyo va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan.

Jumladan, dastlabki tergov davomida lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasi rus olimlaridan A.Axpanov, B.Bulatov, A.Boykov, V.Vetrova, E.Kutueyeva, G'arbiy davlatlardan professor Viktoras Justickis, Sandra Kaija, Jains Teivans-Trenovskis asarlarida ko'rib chiqilgan.

O'zbek olimlaridan esa G.Tulaganova, M.Rustamboyev, D.Bazarova, V.Davlatov, B.Salomov va boshqalarning ishlarida to'xtalib o'tilgan.

Maqolada ob'ektiv voqelikni bilishning dialektik usulidan foydalanilgan. Shuningdek, maqolada tizimli, tarixiy, sotsiologik, qiyosiy huquqiy, rasmiy mantiqiy ma'lumotlardan kompleks foydalanilgan.

Tadqiqotda ilmiy bilishning boshqa usullaridan ham foydalanilgan: tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalar.

### **MUHOKAMA VA NATIJA**

Har bir majburlov chorasini qo'llashdan oldin uni qanday asoslarga ko'ra qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlash lozim.

Bizga ma'lumki tergovchi tomonidan qaror qabul qilish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Rus olimi P. A. Lupinskaya har qanday qonuniy qarorni qabul qilish ikki asosiy bosqichni o'z ichiga olishiga e'tibor qaratgan:

Birinchisi qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan muayyan asoslar va shartlarning mavjudligi (emasligi) to'g'risida xulosa chiqarishga olib keladigan ma'lumotlarni to'plash va baholash;

Ikkinchisi qayta ishlangan ma'lumotlarga asoslanib amalda qaror qabul qilish[5].

Shundan kelib chiqib biz ham lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llashning huquqiy asoslariga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kodeksga ko'ra lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash quyidagi bosqichlari mavjud:

- ayblanuvchi yoki sudlanuvchini lavozimdan chetlashtirish lozim deb topish asoslarini aniqlash;
- tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror qabul qilish;
- prokuror roziligini olish;
- sud tomonidan lavozimdan chetlashtirish masalasini hal qilish;
- ajrim ijrosini ta'minlash;
- qarorning qonuniyligini tekshirish;

Keling siz bilan ushbu bosqichlarni birma bir ko'rib chiqsak.

Lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodekining 29-bobidagi moddalar asos bo'lib hizmat qilmoqda.

Mazkur bob 255-260 moddalarni o'z ichiga oladi.

**Ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish asoslari va muddatlari ham alohida tartibga solingan.**

Jinoyat-protsessual kodeksining 255-moddasida ayblanuvchining lavozimdan chetlashtirish asoslari va muddatlari keltirib o'tilgan. Unga ko'ra ayblanuvchi, sudlanuvchi o'z ish joyida qolsa, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga yoki jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplashga to'sqinlik qiladi yoxud jinoiy faoliyatini davom ettiradi, deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ular lavozimidan chetlashtirilishi mumkinligi belgilangan.

Demak mazkur huquqiy normadan kelib chiqib lavozimdan chetlashtirish **3 ta asos keltirib o'tilgan:**

-jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash

-jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplashga to'sqinlik qilishi

-jinoiy faoliyatini davom ettiradi deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lsa qo'llaniladi.

Jinoyat protsessida qaror qabul qilishning nazariy asoslarini tahlil qilish orqali ma'lumotlar har qanday qaror qabul qilishining asosi ekanligi haqida xulosaga kelish mumkun[6].

Biroq tergovchi, prokuror, yoki sud mavjud ma'lumotlarni o'zing ichki ishonchi va qonun talablaridan kelib chiqib baholasi lozim.

Bundan tashqari, majburlov chorasini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar ham jamiyatning bir qismi sifatida unda yashaydilar va ular ham boshqa shaxslar kabi yozilmagan ahloqiy xulq-atvor qoidalariga bo'ysunadilar.

Ya'ni, huquqni muhofaza qiluvchi organ hodimlari ham qonuniy va asoslantirilgan qaror qabul qilishlari ularga ichki mas'uliyatni yuklaydi.

Yuqoridagilarga ko'ra shuni ta'kidlash lozimki, lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qabul qilish uchun asoslar (shuningdek, har qanday boshqa qarorlar) murakkab xususiyatga ega, ya'ni quyidagi elementlarga asoslanadi.

- 1) jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqi normalari
- 2) Faktik va boshqa ma'lumotlarni
- 3) Ichki ishonch
- 4) Ahloqiy me'yorlarga asoslanadi.

Birinchisi me'yoriy (yoki huquqiy) asoslarni, ikkinchisi - axborot, uchinchisi - psixologik va to'rtinchisi – axloqiy[7] me'yor hisoblanadi.

Bundan tashqari, har bir majburlov chorasini qo'llashdan aniq bir maqsad bo'lishi lozim.

Ushbu maqsadga yetmasdan turib uni qo'llab bo'lmaydi. Biroq mazkur chorani qo'llash maqsadi kodeksda berib o'tilmagan.

Shu o'rinda Jinoyat-protsessual kodeksining 213-moddasiga ya'ni majburlov chorasini qo'llash tartibiga to'xtalib o'tsak.

Kodeksga ko'ra jinoyat protsessi ishtirokchisi tergov yoki sud harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan, o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotgan bo'lsa, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish va hukm ijrosini ta'minlash uchun zarur bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ushbu Kodeksda belgilangan hollarda hamda tartibda majburlov choralarini qo'llashga haqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Ya'ni qonun chiqaruvchi Kodeksda majburlov chorasini qo'llashdan aniq bir maqsadni ochiq ko'rsatib o'tmagan. Xususan yuqoridagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda **zaruriyat yuzaga kelsa** ushbu majburlov chorasini qo'llash lozimligini ta'kidlagan.

Kodeksda lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llashdan maqsadni aniq berib o'tilmaganligi ushbu majburlov chorasini qo'llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelayotganligini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham kodeksga nafaqat lavozimdan chetlashtirish, balki umumiy majburlov chorasini qo'llashdan ko'zlangan maqsadni kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari mazkur moddaning o'zida majburlov chorasi qo'llash mumkin **bo'lgan subyektlar keltirib o'tilgan.**

Unga ko'ra mazkur majburlov chorasi faqat ishga ayblanuvchi yoki sudlanuvchi sifatida ishga jalb qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini faqat ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qo'llashni o'zi yetarli emas deb hisoblaymiz.

Ya'ni nafaqat ayblanuvchi balki gumon qilinuvchi ham yuqoridagi asoslar mavjud bo'lgan taqdirda lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bizningcha mazkur majburlov chorasini qo'llashdan asosiy maqsadlardan biri jinoyat sodir etgan shaxsni o'z harakatlarini davom ettirmaslik maqsadida qo'llaniladi.

Shuningdek ayrim adabiyotlarda, mazkur majburlov chorasi quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan:

a) ayblanuvchining ish joyida tarbiyaviy, profilaktika ishlarini olib borish uchun qo'llanilishi mumkin. Ya'ni shaxs lavozimdan chetlatilganligi jamoa darhol bilinadi va jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan uning mansab mavqeidan qat'iy nazar adolatli, majburiy va ziddlik bilan qo'llanilgan chora sifatida baholanadi.

b) ayblanuvchi o'z xizmat mavqeidan foydalanib jinoiy harakatlarini davom ettirishni davom ettirishga yo'l qo'ymaslik;

v) ayblanuvchi tomonidan tergovga halaqati qilishni oldini olish (guvohga, sheriklariga va boshqalarga ta'sir ko'satishni oldini olish maqsadida);

d) ayblanuvchi ishlayotgan muassasa yoki davlat organining nufuzini saqlash;

e) ayblanuvchining o'ziga nisbatan tarbiyaviy majburlov chorasi sifatida»[8] qo'llash mumkinligi ko'rsatilgan.

Yuqorida lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash asoslari va maqsadlari tahlil qilingan bo'lsa, endi uni qo'llash tartibi haqida so'z yuritsak.

Jinoyat-protsessual kodeksining 255-moddasida ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi masala ushbu bobda belgilangan tartibda, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish haqidagi masala esa Kodeksning 423, 438-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan hal qilinadi.

Kodeksning 423-moddasida sud majlisida ajrim chiqarish tartibi belgilangan bo'lib, sud muhokamasi vaqtida hal qilinadigan barcha masalalar yuzasidan sud ajrim chiqaradi.

Jumladan, sud ehtiyot choralarini qo'llash (o'zgartirish, bekor qilish) to'g'risidagi, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish haqidagi **ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish haqidagi**, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish



to'g'risidagi, ayblanuvchining, sudlanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish haqidagi, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi, rad qilishlar haqidagi ajrimlarni, boshqa organlarga ijro etish uchun yuboriladigan o'zga ajrimlarni, shuningdek xususiy ajrimlarni alohida xonada (maslahatxonada) chiqaradi. Bu ajrimlar alohida hujjatlar tarzida rasmiylashtiriladi va sud tomonidan imzolanadi.

Boshqa barcha ajrimlar sudning xohishi bilan yo yuqorida ko'rsatilgan tartibda, yoki o'z joyida chiqarilib, bu ajrim sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

Bundan tashqari kodeksning 438-moddasida iltimoslar qilish va ularni hal etish tartibi belgilangan.

Unga ko'ra sud majlisining tayyorlov qismi iltimoslar bor-yo'qligini aniqlash bilan yakunlanadi. Raislik qiluvchi taraflardan yangi guvohlar, ekspertlar yoki mutaxassislar chaqirish, ashyoviy dalillar va hujjatlar talab qilib olish to'g'risida ularning iltimoslari bor-yo'qligini so'raydi. Iltimos qiluvchi taraf qo'shimcha dalillar aynan qaysi holatlarni aniqlash uchun zarurligini ko'rsatishi shart.

Taraf arz qilgan har bir iltimosni muhokama qilib, sud boshqa tarafning fikrini tinglaydi va basharti, iltimos ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, uni qanoatlantiradi, aks holda qanoatlantirishni rad etadi.

Iltimosning rad etilishi sud muhokamasi davomida tarafni keyinchalik boshqa asoslarga ko'ra yana shu iltimos bilan murojaat etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Sud o'zining tashabbusi bilan yangi guvohlarni chaqirish, ekspertiza tayinlash, hujjatlarni va boshqa qo'shimcha dalillarni talab qilib olish to'g'risida ajrim chiqarishga haqlidir.

Basharti sud qo'shimcha dalillarni tekshirishni lozim deb topsa, sud majlisiga yangi guvohlar, ekspertlar kelishini yoki hujjatlar talab qilib olinishini ta'minlash choralarini ko'rib, ayni chog'da muhokamani yo davom ettiradi yoki uni keyinga qoldiradi.

#### **Lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash muddatlari.**

Lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash muddatlari bo'yicha aniq muddatlar belgilanmagan. Xususan ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash uchun asos bo'lgan holatlar bekor bo'lguniga qadar o'tgan vaqt mobaynida qo'llanilishi kodeksning 255-moddasida keltirib o'tilgan.

Demak ushbu moddaga ko'ra faqat yuqoridagi uchta asos bekor bo'lgunga qadar bo'lgan davr davomida qo'llanadi. Bu jarayon hoh sud davomida hoh tergov davomida bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasi qaror chiqargan sudni albatta xabardor etgan holda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan bekor qilinadi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llash rad qilingan yoki u bekor qilingan taqdirda, aynan o'sha ayblanuvchiga nisbatan mazkur masala bo'yicha takroran sudga murojaat qilishga lavozimdan chetlashtirish uchun asos bo'ladigan yangi holatlar yuzaga kelganda yo'l qo'yiladi.

**Ishni sudga qadar yuritish bosqichida ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish.**

**Mazkur majburlov chorasi ikkita vaziyatda qo'llaniladi.**

-Ish suda ko'rilayotgan vaqtda sudlanuvchiga nisbatan;

-ishni sudga qadar yuritish bosqichida ayblanuvchiga nisbatan.

Agar shaxs ishda ayblanuvchi sifatida ishga jalb qilingan bo'lsa, uni lavozimdan chetlashtirish uchun asoslar mavjud bo'lganda prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorda:

- lavozimidan chetlashtiriladigan shaxs haqidagi ma'lumotlar;
- uning ish joyi;
- lavozimdan chetlashtirish asoslari ko'rsatiladi.

Qarorga iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi.

Surishtiruvchining, tergovchining ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi.

Prokuror ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning asoslilikini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Shu o'rindan lavozimdan chetlashtirish masalasida vakolatli shaxslar doirasi aniq belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror qabul qilish vakolati surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qilish mumkinligini ko'ramiz.

Mazkur moddada shuningdek qarorning asosligini tekshiruvchi alohida subyekt haqida ham belgilangan bo'lib, unga ko'ra prokuror qarorning asoslilikini o'rganib, tegishli tartibda sudga yuborish mumkinligi ko'rsatilgan.

#### **Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish**

Jinoyat-protsessual kodeksining 257-moddasida ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishga **vakolatli bo'lgan sudlar toifasi** ham alohida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra:

- surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi;

-hududiy harbiy sudi;

- Mazkur sudlarning sudyasi bo'lmagan yoxud ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi materialni ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining ko'rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Lavozimdan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash haqidagi iltimosnomani sud tomonidan ko'rib chiqish muddatlari ham belgilab qo'yilgan. Kodeksning 257-moddasiga ko'ra ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yopiq sud majlisida, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran **qirq sakkiz soat**dan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Sud majlisida prokuror, ayblanuvchi, shuningdek, agar ishda qatnashayotgan bo'lsa, himoyachi va qonuniy vakil ishtirok etadi. Zarur bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi sudga chaqirilishi mumkin.

Sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmaydi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish prokurorning ma'ruzasi bilan boshlanadi, u mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash zaruratini asoslab beradi. So'ngra ayblanuvchi, himoyachi, sudda hozir bo'lgan boshqa shaxslar eshitaladi, taqdim qilingan materiallar tekshiriladi. Shundan keyin sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.

#### **Iltimosnomani ko'rib chiqish tartibi.**

Kodeksning 258-moddasiga sudya ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi

-ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida;

-ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirishni rad qilish haqida ajrim chiqaradi.

Sudyaning ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimida: lavozimidan chetlashtiriladigan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uning ish joyi; lavozimidan chetlashtirish asoslari; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbariga qo'yiladigan talab ko'rsatiladi.

Sudyaning ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirishni rad qilish haqidagi ajrimi asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Sudyaning ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Ajrim tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbariga ijro uchun, prokurorga, ayblanuvchiga, himoyachiga esa ma'lumot uchun yuboriladi.

Sudyaning JPKning 258-modda birinchi qismida nazarda tutilgan ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran yetmish **ikki soat ichida** ayblanuvchi, uning himoyachisi va qonuniy vakili, lavozimidan chetlashtirilgan ayblanuvchi ishlagan tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari tomonidan apellatsiya tartibida shikoyat berilishi yoxud prokuror tomonidan protest bildirilishi mumkin. Shikoyat, protest ajrimni chiqargan sud orqali beriladi, mazkur sud **qirq sakkiz soat** ichida ularni materiallar bilan birga apellatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart. Shikoyat yoki protest berish sudning ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimi ijrosini to'xtatib qo'ymaydi. Apellatsiya instansiyasi sudi ushbu materiallarni shikoyat yoki protest bilan birga ular kelib tushgan paytdan e'tiboran **yetmish ikki soatdan** kechiktirmasdan ko'rib chiqishi kerak.

Apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyatini, protestini ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishga;

sudyaning ajrimini bekor qilish va ayblanuvchiga nisbatan lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llashga yoki mazkur protsessual majburlov chorasini bekor qilishga haqli.

#### **Sud ajrimini ijro etish tartibi**

Kodeksning 259-moddasida ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimni ijro etish tartibi belgilangan.



Xususan, sudning ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimi korxon, muassasa, tashkilot rahbari uchun majburiy bo'lib, rahbar ajrimni olishi bilan darhol uni ijro etishi hamda bu haqda surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni va sudni xabardor qilishi shartligi belgilangan.

### **Shaxsni lavozimidan qonunga xilof ravishda chetlashtirish oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplash tartibi.**

Shuningdek qonunchilikning 260-moddasida shaxsni lavozimidan qonunga xilof ravishda chetlashtirish oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplash tartibi qisqacha ko'rsatib o'tilgan.

Ya'ni, shaxsning lavozimidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgani oqibatida yetkazilgan ziyon, basharti keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan yoki jinoyat ishi Jinoyat-protsessual kodeksning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tugatilgan bo'lsa, to'la hajmda qoplanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 83-moddasida reabilitatsiya uchun asoslar keltirib o'tilgan.

Jumladan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topilib, reabilitatsiya etilishi lozim:

- 1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;
- 2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;
- 3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 991-moddasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi keltirib o'tilgan.

Qonunga xilof tarzda hukm etish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat olishni qonunga xilof qo'llanish, qamoq tariqasidagi ma'muriy jazoni qonunga xilof tarzda berish, shuningdek har qanday qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning mansabdor shaxslari aybidan qat'i nazar, qonunda belgilangan tartibda **davlat tomonidan** to'la hajmda to'lanadi. Sudning qarori bilan zararni qoplash zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning boshqa tarzdagi qonunga xilof faoliyati natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, umumiy asoslarda to'lanadi.

### **XULOSA**

Maqola davomida lavozimidan chetlashtirish majburlov chorasini qo'llash tartibi haqida va undagi muammolar haqida to'xtalib o'tdik.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki yuqoridagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish orqali jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirish mumkin bo'ladi.

## REFERENCES

1. 10.12.1948 yildagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
2. 16.12.1966 yildagi “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida” Xalqaro pakti <https://lex.uz/docs/-2640479>
3. O‘zbekiston Respublikasining 30.04.2023 qilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli qaror <https://lex.uz/docs/5841063>
5. Лупинская П. А. Решения в уголовном судопроизводстве: теория, законодательство, практика. М., 2010. С. 24.
6. Вольнская О. В. Прекращение уголовного дела и уголовного преследования: теоретические и организационно-правовые проблемы : дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2008. С. 234.
7. Ю. В. Основания и мотивы принятия уголовно-процессуальных решений в стадии возбуждения уголовного дела : дис. ... канд. юрид. наук. Омск, 2001. С. 85.
8. Уголовно-процессуальному кодексу Молдавской ССР / под ред. А. С. Казанира и А. И. Санталова. С. 140.